

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Xonimqulov Islom Ergash o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

ORCID ID:0009-0001-9983-1829

Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini to'g'ri va samarali tashkil etish ta'lim sifati, moliyaviy barqarorlik hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashtirish sharoitida ko'plab mamlakatlar oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish hamda shaffoflikni oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu jihatdan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni milliy amaliyot bilan solishtirish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda moliyaviy hisobot va xarajatlar hisobini modernizatsiya qilish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini takomillashtirish yo'nalishida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslaganda, ayrim jihatlarida takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobi asosan natijadorlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida tashkil etiladi. Rivojlangan mamlakatlarda xarajatlar faqat moliyaviy hisobot talabi sifatida emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida qaratiladi.

Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritishda faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuvda xarajatlar alohida faoliyat turlari ta'lim, ilmiy tadqiqot, ma'muriy xizmatlar bo'yicha aniqlanib, resurslardan foydalanish samaradorligi baholanadi. Natijada xarajatlarning aniq manbalari va ularning ta'lim natijalariga ta'siri aniqlanadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida, xususan Germaniya va Fransiyada, oliy ta'lim muassasalari xarajatlar hisobi ko'pincha dasturli-byudjetlash tamoyillari asosida yuritiladi. Bunda xarajatlar aniq ta'lim dasturlari va natijalarga bog'lanadi. Har bir dastur bo'yicha ajratilgan mablag'lar va erishilgan natijalar solishtirilib, samaradorlik tahlil qilinadi.

Osiyo davlatlarida, jumladan Yaponiya va Janubiy Koreyada, xarajatlar hisobida raqamlashtirish va avtomatlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim tashkilotlarida moliyaviy operatsiyalar yagona axborot tizimlari orqali yuritilib, real vaqt rejimida monitoring va nazorat amalga oshiriladi. Quyidagi O'zbekiston va ayrim

xorijiy davlatlar oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etish tajribasi qiyoslangan (1- jadval).

**Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini
tashkil etish bo'yicha qiyosiy jadval¹**

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	AQSh / Buyuk Britaniya	Germaniya / Fransiya	Yaponiya / Janubiy Koreya
Xarajatlar hisobining asosiy yondashuvi	An'anaviy smeta va xarajat moddalari bo'yicha hisob	Faoliyatga asoslangan (ABC)	Dasturli-buydjetlash	Avtomatlashtiril-gan va raqamli hisob
Xarajatlarni rejalashtirish	Yillik smeta asosida	Strategik va o'rta muddatli rejalashti-rish	Dasturlar va natijalarga bog'langan	Uzoq muddatli va prognozli
Hisobot va nazorat	Asosan davlat nazorati	Ichki audit va jamoatchilik nazorati	Davlat va mustaqil audit	Raqamli monitoring
Xarajatlar samaradorligini baholash	Cheklangan	KPI va samarador-lik indikatorlari	Natija asosida baholash	Real vaqt tahlili
Axborot texnologiyalari-dan foydalanish	Qisman	Keng qo'llaniladi	Keng qo'llaniladi	To'liq integratsiyalashgan

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, xarajatlar hisobini samarali tashkil etish faqat buxgalteriya vazifasi emas, balki strategik boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda xarajatlar hisobi orqali ta'lim dasturlarining iqtisodiy samaradorligi, ilmiy faoliyat natijalari va boshqaruv xarajatlarining maqbulligi baholanadi. Shuningdek, xorijiy amaliyotda xarajatlar hisobi ochiq va shaffof bo'lib, manfaatdor tomonlar - davlat, talabalar, jamoatchilik uchun tushunarli axborot taqdim etiladi. Bu holat oliy ta'lim muassasalariga bo'lgan ishonchni oshiradi va raqobat muhitini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlar tajribasi oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etishda samaradorlik, natijadorlik va shaffoflik tamoyillariga ustuvor ahamiyat berilishini ko'rsatadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xarajatlar hisobi asosan an'anaviy yondashuvlarga tayangan holda yuritilmoqda, biroq so'nggi yillarda raqamlashtirish va modernizatsiya jarayonlari boshlangan. Xorij tajribasi bilan

solishtirganda, O'zbekistonda xarajatlar hisobini natija va faoliyatga asoslangan yondashuvlar bilan boyitish, hisobotlarning tahliliy darajasini oshirish zarurati mavjud.

Xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini bosqichma-bosqich faoliyatga asoslangan (ABC) tizimga o'tkazish lozim. Bu xarajatlarning aniq manbalarini aniqlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, xarajatlarni dasturli-budjetlash asosida rejalashtirish va baholash mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu ta'lim va ilmiy dasturlar natijadorligini moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bog'lash imkonini beradi.

Uchinchidan, xarajatlar hisobi va moliyaviy hisobotlarni to'liq raqamlashtirish orqali monitoring va nazoratni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish, moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish va ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi.